

TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Qurbonov Rufat Baxtiyorovich PhD,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank hisobi va auditi"

kafedra professori

e-mail: r.qurbonov@tsue.uz

ORCID: [0000-0002-6841-9292](https://orcid.org/0000-0002-6841-9292)

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN IMPROVING THE CAPITALIZATION LEVEL OF COMMERCIAL BANKS

Rufat Bakhtiyorovich Kurbanov PhD,

Professor of the Department of Banking Accounting and Audit,

Tashkent State University of Economics

e-mail: r.qurbonov@tsue.uz

ORCID: [0000-0002-6841-9292](https://orcid.org/0000-0002-6841-9292)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot tijorat banklari kapital bazasining mustahkamligini belgilaydigan ichki va tashqi omillarni tizimli tahlil etishga bag'ishlangan. An'anaviy tadqiqotlardan farqli o'laroq, ishda kapitallashuv muammosi alohida ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq bo'lgan to'rt halqali zanjir — daromadlilik, aktivlar sifati, valyuta tarkibi va bozor infratuzilmasi — ko'rinishida talqin qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistikasi va xalqaro reyting agentliklarining baholari asosida 2021–2025-yillar oraligidagi besh yillik tendentsiya qurilgan va ularning har biri uchun mumkin bo'lgan rivojlanish ssenariylari taqqoslangan.

Kalit so'zlar: tijorat banklar, kapitallashuv darajasi, resurs baza, bank kapital, ustav kapital, kapital adekvatligi koeffitsienti.

Abstract: This study is devoted to a systematic analysis of internal and external factors that determine the sustainability of the capital base of commercial banks. Unlike traditional studies, the issue of capitalization

is examined not as a set of individual indicators but as an interconnected four-component framework consisting of profitability, asset quality, currency structure, and market infrastructure. Based on the official statistics of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and assessments provided by international rating agencies, a five-year trend covering the period from 2021 to 2025 has been constructed. Furthermore, possible development scenarios for each of the examined areas have been compared and evaluated.

Keywords: commercial banks, capitalization level, resource base, bank capital, authorized capital, capital adequacy ratio.

Kirish

Moliyaviy vositachilik institutlari orasida tijorat banklari real sektorni resurs bilan ta'minlash funksiyasini bajaradigan asosiy bo'g'in hisoblanadi, va bu funksiyaning barqarorligi ko'p jihatdan bankning o'z kapitaliga, ya'ni zarar ko'rish holatlarida ham majburiyatlarni bajarish qobiliyatini saqlab qoluvchi moliyaviy

buferga bog'liq. Boshqacha aytganda, kapital — bu faqat tartibga soluvchi tomonidan talab qilinadigan raqam emas, balki bankning real iqtisodiyotga nisbatan qancha 'zarba yutish' salohiyatiga ega ekanligining ko'rsatkichidir. Aynan shu sababli kapitallashuv darajasini faqat statik ko'rsatkich sifatida emas, balki vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchi dinamik jarayon sifatida o'rganish to'g'riroq yondashuv hisoblanadi.

O'zbekistonda bank tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan bir qator strategik hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, amaliyot shuni ko'rsatadiki, me'yoriy-huquqiy baza mavjudligi o'z-o'zidan kapitallashuv muammosini hal etmaydi — chunki bu muammo bir vaqtning o'zida bozor tuzilmasi, makroiqtisodiy muhit va alohida banklarning ichki boshqarish sifati bilan chambarchas bog'liq. Mazkur maqolada ushbu uch darajani — makro, tarmoq va mikro darajalarni — bir-biridan ajratib emas, balki ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda tahlil qilish maqsad qilib qo'yilgan [1].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, kapitallashuv muammolari an'anaviy ravishda alohida-alohida sanab o'tilgan ro'yxat shaklida emas, balki bir-birini kuchaytiruvchi yoki zaiflashtiruvchi omillar zanjiri sifatida ko'rib chiqiladi, hamda har bir muammo bo'yicha besh yillik statistik tendentsiya asosida muallifning o'z talqini taqdim etiladi. Tadqiqotning maqsadi — ushbu zanjirni aniqlash, uning kuchsiz bo'g'inlarini topish va ularni mustahkamlashning bosqichma-bosqich ketma-ketligini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Mavjud iqtisodiy adabiyotlarda «Kapitallashuv darajasi» tushunchasi, uni oshirish masalalari xorijlik olimlar, mutaxassislar tomonidan o'rganilgan va tegishli ta'riflar berilgan. Dastavval A.B.Borisovning "Katta iqtisodiy lug'ati"da –

“Kapitalizatsiya bu bankning qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarib, sotishdan tushgan va daromadidan ma'lum zaxiralar tashkil etish uchun ajratilgan mablag'lar hisobiga bank kapitalining o'sgan qismi tushuniladi” [2] A. S. Klimov tadqiqotlarida «kapitallashuv» tushunchasiga, «kredit tashkiloti kapitalining bozor qiymati haqida aksiyalar sonining ularning bozor qiymatiga ko'paytmasi sifatida»- deb ta'rif berilgan [3].

Berger va Bouwman (2013) bank kapitalining yuqori darajasi moliyaviy inqirozlar davrida banklarning risklarga chidamliligini oshirishini hamda kreditlash faoliyatining uzluksizligini ta'minlashini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, kapitalning yetarli darajada shakllantirilishi banklarning bozor ishtirokchilari oldidagi ishonchligini mustahkamlaydi va tizimli risklarni kamaytiradi [4].

Diamond va Rajan (2000) bank kapitalini moliyaviy vositachilik samaradorligining muhim elementi sifatida baholab, kapital hajmi va kredit portfeli sifati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini asoslaydilar. Ularning tadqiqotlarida banklarning kapital bazasi qanchalik mustahkam bo'lsa, iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlari shunchalik keng bo'lishi qayd etilgan [5].

Basel qo'mitasi (2019) tomonidan ishlab chiqilgan prudensial standartlarda kapital adekvatligi banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilib, kapitalning sifati va tarkibiga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, birinchi darajali kapital ulushini oshirish hamda riskka tortilgan aktivlar hajmini optimallashtirish banklar kapitallashuvini kuchaytirishning muhim vositalari sifatida ko'rsatilgan [6].

Lavrushin (2021) bank kapitalining o'sishi bank tizimining raqobatbardoshligi va investitsion jozibadorligini oshirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, banklar

kapitallashuvining asosiy manbai sifatida sof foydani kapitalizatsiya qilish va qimmatli qog'ozlar emissiyasi muhim ahamiyat kasb etadi [7].

Ph.D M.E.Egamova o'zining tadqiqotida "Tijorat banklari faoliyatini sarmoyasiz, ya'ni etarli darajada kapitallashuvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois tijorat banklari kapitali dastlab banklarni ochish jarayonida, keyinchalik esa Markaziy bankning iqtisodiy normativlarini bajarishda asosiy mezon va bank faoliyatida kutilmaganda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplashda "himoya yostiqlashi" sifatida muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi"-degan tushunchani bergan [8]. Aynan I. B. Tursunov o'zining tadqiqot ishida aniq bir bankning kapitallashuvi ko'p jihatdan xususiy kapitalining mutlaq hajmi bilan belgilanishini asoslab bergan [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani tayyorlashda tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish bo'yicha amaliy ma'lumotlar tahlil qilindi va barcha foydalanilgan ma'lumotlar amaldagi qonun hujjatlari va Markaziy bankning statistik ko'rsatkichlari asosida muallif tomonidan tadqiq qilindi. Maqolada qiyosiy tahlil, guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv va tarkibiy tahlil usullari ko'llanildi.

Tahlil va natijalar

Tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash mamlakat bank tizimining barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi [10]. Bizga ma'lumki, tijorat banklari kapitali bank aktsiyadorlari mablag'lari va boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi. Quyidagi jadvalda mamlakatimiz tijorat banklarining shakllangan kapitali haqida umumiy ma'lumot keltirilgan.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklari kapitalining amaliy holati[11]

mldr.so'mda

№	Bank nomi	2023 yil		2024 yil		2025 yil		Oʻzgarishi (+/-)	
		summ a	ulush, %da	summ a	ulush, %da	summa	ulush, %da	summ a	Oʻsish surʼati
Jami		97079	100	114792	100	135 339	100	38260	39,4
Davlat ulushi mavjud banklar		63239	65	70175	61	81425	60	18186	28,8
1	Oʻzmilliybank	17849	18,4	18860	16,4	19969	14,8	2120	11,9
2	Oʻzsanoatqurilishbank	8728	9,0	10025	8,7	11875	8,8	3147	36,1
3	Asaka bank	6668	6,9	8016	7,0	8237	6,1	1569	23,5
4	Agrobank	12297	12,7	12427	10,8	13774	10,2	1477	12,0
5	Xalq banki	5883	6,1	8000	7,0	10623	7,8	4740	80,6
6	BRB	3180	3,3	4295	3,7	5269	3,9	2089	65,7
7	Mikrokreditbank	3934	4,1	3551	3,1	5739	4,2	1805	45,9
8	Aloqa bank	2643	2,7	3082	2,7	3847	2,8	1204	45,6
9	Turon bank	1897	2,0	1919	1,7	2092	1,5	195	10,3
10	Poytaxt bank*	160	0,2	175	0,2	175	0,1	15	9,4
Boshqa banklar		33 840	35	44 617	39	53 914	40	20074	59,3
11	Ipoteka bank	7579	7,8	7337	6,4	7735	5,7	156	2,1
12	Kapital bank	4226	4,4	5225	4,6	7019	5,2	2793	66,1

13	Hamkor bank	3759	3,9	5160	4,5	6705	5,0	2946	78,4
14	Ipak yo'li bank	2752	2,8	3588	3,1	4426	3,3	1674	60,8
15	O'zKDB bank	1311	1,4	1838	1,6	2490	1,8	1179	89,9
16	Trast bank	2244	2,3	2920	2,5	3 665	2,7	1421	63,3
17	Orient Finans bank	2248	2,3	3 073	2,7	3 998	3,0	1750	77,8
18	Invest Finans bank	1180	1,2	1415	1,2	1824	1,3	644	54,6
19	Tenge bank	1272	1,3	1303	1,1	1358	1,0	86	6,8
20	Aziya Alyans bank	845	0,9	1164	1,0	1224	0,9	379	44,9
21	Davr bank	1006	1,0	1398	1,2	2029	1,5	1023	101,7
22	Ziraat bank	469	0,5	672	0,6	734	0,5	265	56,5
23	Universal bank	418	0,4	606	0,5	806	0,6	388	92,8
24	Garant bank	285	0,3	547	0,5	552	0,4	267	93,7
25	Oktobank	479	0,5	755	0,7	1021	0,8	542	113,2
26	Anor bank	582	0,6	1022	0,9	1359	1,0	777	133,5
27	Tibisi bank	1208	1,2	2503	2,2	2504	1,9	1296	107,3
28	Hayot bank	182	0,2	460	0,4	551	0,4	369	202,7
29	Eron Soderot bank	459	0,5	501	0,4	539	0,4	80	17,4
30	Open bank	203	0,2	506	0,4	513	0,4	310	152,7
31	Madad invest bank	240	0,2	517	0,5	526	0,4	286	119,2
32	Uzum bank	265	0,3	651	0,6	816	0,6	551	207,9
33	AVO bank	153	0,2	548	0,5	554	0,4	401	262,1
34	Apeks bank	278	0,3	406	0,4	607	0,4	329	118,3
35	Yangi bank	197	0,2	166	0,1	184	0,1	-13	-6,6
36	Evroosiyo bank	0	0,0	161	0,1	0	0,0	0	0,0

1-jadval ma'lumotlaridan tijorat banklari jami kapitali O'zbekiston bank tizimi kapitalida 2023–2025 yillar davomida ijobiy dinamika saqlanganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davrda tijorat banklarining jami kapitali 97 079 mlrd so'mdan 135 339 mlrd so'mgacha oshgan bo'lib, mutlaq o'sish 38 260 mlrd so'mni yoki 39,4 foizni tashkil etgan. Bu holat bank tizimi moliyaviy barqarorligining mustahkamlanayotganini va kapital bazasining kengayib borayotganini anglatadi.

Kapital tarkibi tahlili davlat ishtirokidagi banklar hanuz bank tizimida etakchi o'rinni egallab turganligini ko'rsatadi. Ularning kapitali 63 239 mlrd so'mdan 81 425 mlrd so'mgacha o'sgan bo'lsa-da, umumiy kapitaldagi ulushi 65 foizdan 60 foizgacha qisqargan. Bu esa davlat banklari

kapitalining mutlaq hajmi o'sganiga qaramay, xususiy banklar kapitali nisbatan tezroq o'sganligini ko'rsatadi. Mazkur holat bank sohasida amalga oshirilayotgan transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarining ma'lum darajada samara berayotganligini anglatadi.

Davlat ishtirokidagi banklar orasida kapital hajmi bo'yicha O'zmilliybank etakchilikni saqlab qolgan. Biroq uning umumiy kapitaldagi ulushi 18,4 foizdan 14,8 foizgacha pasaygan. Bu holat bank kapitali o'sishining asosiy qismi boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zsanoatqurilishbank kapitali 36,1 foizga, Xalq banki kapitali esa 80,6 foizga oshgan bo'lib, mazkur banklarda kapitallashuv jarayonlari faol kechganligini anglatadi.


Tahlil natijalari xususiy banklarda kapital o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lganligini ko'rsatadi. Xususiy banklar jami kapitali 33 840 mlrd so'mdan 53 914 mlrd so'mgacha oshib, 59,3 foizlik o'sishni ta'minlagan. Natijada ularning bank tizimi umumiy kapitalidagi ulushi 35 foizdan 40 foizgacha ko'tarilgan. Bu holat xususiy banklarning moliyaviy imkoniyatlari kengayib borayotganligini va raqobat muhiti kuchayib borayotganligini ko'rsatadi.

Alohida banklar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori o'sish sur'atlari AVO bank (262,1%), Humo bank (207,9%), Hayot bank (202,7%), Open bank (152,7%), Anor bank (133,5%) va TBS bankda (107,3%) qayd etilgan. Bu banklarda kapitalning yuqori sur'atlarda o'sishi raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinishi va bozor ulushining kengayishi bilan izohlanishi mumkin.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan yana bir muhim xulosa shuki, bank tizimida kapital kontsentratsiyasi darajasi hanuz yuqori bo'lib qolmoqda. 2025 yil holatiga ko'ra, eng yirik beshta davlat banki umumiy kapitalning

qariyb yarmini shakllantirmoqda. Bu holat tizimli ahamiyatga ega banklarning ustunligini saqlab qolayotganligini ko'rsatadi va kapital resurslarining diversifikatsiyasi bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rishni talab qiladi. Umuman olganda, 2023–2025 yillarda O'zbekiston tijorat banklari kapitalining o'sishi ijobiy tendentsiyani namoyon etgan. Biroq bank tizimida davlat banklarining yuqori ulushi saqlanib qolayotganligi, kapitalning yirik banklarda jamlanganligi hamda ayrim banklarda kapital o'sish sur'atlarining pastligi kapitallashuv jarayonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, IPO va SPO mexanizmlarini kengaytirish, strategik investorlarni jalb qilish, subordinatsiyalangan qarz instrumentlaridan foydalanish hamda banklar foydasini kapitalizatsiya qilish amaliyotini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorilardan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, respublikamiz tijorat banklarining kapitallashish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga baho beramiz zarur[12].



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapitallashuv darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning holati[11]

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020–2025 yillar davomida O'zbekiston tijorat banklarining jami kapitali barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2020 yilda jami kapital 51 031 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 135 339 mlrd so'mga etgan. Natijada tahlil qilinayotgan davr mobaynida bank tizimi kapitali 84 308 mlrd so'mga ko'payib, 165,2 foizlik mutlaq o'sishni ta'minlagan. Bu esa banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va risklarni qoplash salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning ijobiy natijasini aks ettiradi.

Dinamik tahlil natijalariga ko'ra, kapital o'sish sur'atlari yillar kesimida bir xil bo'lmagan. Xususan, 2020 yilda jami kapital 14,3 foizga o'sgan bo'lsa, 2021 yilda mazkur ko'rsatkich 21,5 foizga etgan. Bu holat pandemiyadan keyin iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash, davlat ishtirokidagi banklarni qo'shimcha kapitallashtirish va kapital etarililigini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar ta'siri bilan izohlanadi.

2024–2025 yillarda kapital o'sish sur'atlari mos ravishda 18,2 va 17,9 foizni tashkil etgan. Garchi bu ko'rsatkichlar 2023 yilga nisbatan biroz past bo'lsa-da, ularning yuqori darajada saqlanib qolishi bank tizimida kapitallashtirish jarayonlari izchil davom etayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2025 yilda jami kapitalning 135,3 trln so'mga etganligi banklarning aktiv operatsiyalarini kengaytirish va xalqaro standartlarga mos kapital etarililigi talablarini bajarish imkoniyatlarini oshiradi.

Umuman olganda, 2020–2025 yillarda O'zbekiston tijorat banklari kapitali dinamikasi ijobiy tendentsiyani namoyon etgan bo'lib, bu bank tizimining moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi. Biroq kelgusida kapitallashtirish

darajasini yanada oshirish uchun banklar foydasini kapitalizatsiya qilish mexanizmlarini kengaytirish, qo'shimcha aksiyalar emissiyasi orqali xususiy investitsiyalarni jalb qilish, subordinatsiyalangan qarz instrumentlaridan foydalanish hamda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarining kapitallashtirish darajasi bank tizimining moliyaviy barqarorligi, risklarga chidamliligi va iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar natijasida 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari jami kapitalining barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganligi aniqlandi. Xususan, ushbu davrda bank tizimi kapitali 51,0 trln so'mdan 135,3 trln so'mgacha oshib, qariyb 2,7 barobar o'sishga erishgan.

Shu bilan birga, banklar kapitalining mutlaq hajmi ortib borayotganiga qaramasdan, kapitallashtirish jarayonida qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, davlat ulushiga ega banklarning bank tizimi kapitalidagi yuqori salmog'i, kapital bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ayrim banklarda foydani kapitalizatsiya qilish amaliyotining sustligi hamda muammoli kreditlar ulushining mavjudligi kapital bazasining sifat jihatdan mustahkamlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot davomida davlat banklari kapitalining mutlaq hajmi yuqori bo'lishiga qaramasdan, xususiy banklarda kapital o'sish sur'atlari nisbatan tezroq kechayotganligi aniqlandi. Bu esa bank sektorida raqobat muhitining kuchayib borayotganligini va xususiy kapitalning bank tizimidagi o'rni ortayotganligini ko'rsatadi.

Yuqorida amalga oshirilgan tahlillar va o'rganishlar asosida banklar kapitallashuv darajasiga oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldik:

1. Bank rahbariyati darajasida foydani taqsimlash siyosatini qayta ko'rib chiqish tavsiya etiladi: kapital adekvatligi zaxirasi minimal me'yorga yaqinlashgan davrlarda, sof foydaning katta qismini majburiy ravishda kapitalga yo'naltirish mexanizmini ichki boshqaruv hujjatlarida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

2. Kapital bozorlaridan mablag' jalb qilish mexanizmlarini kengaytirish. Banklarning IPO va SPO amaliyotlarida ishtirokini faollashtirish, korporativ obligatsiyalar hamda subordinatsiyalangan qarz instrumentlarini chiqarishni rag'batlantirish zarur..

3. Strategik xorijiy investorlarni jalb qilish. Xorijiy investorlar ishtiroki banklarga nafaqat qo'shimcha kapital, balki zamonaviy korporativ boshqaruv tajribasi va innovatsion texnologiyalarni olib kirishga xizmat qiladi.;

4. Davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish. Bank sektorida xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va davlat banklarini transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish mumkin.

5. Basel III standartlarini to'liq joriy etish. Kapitalning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, birinchi darajali kapital ulushini oshirish hamda riskka asoslangan nazorat tizimini takomillashtirish banklar barqarorligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5992-sonli "2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF- Farmoni, 2020 yil 12 may

2. Большой экономический словарь. А.Б.Борисов. Издание второе М. «Книжный мир» 2006 г. С-300.

3. Климов А.С.. Капитализация коммерческих банков: мировая практика и ее использование российскими банковскими структурами: диссертация. кандидата экономических наук: Москва, 2008.- 180 с.:

4. Berger, A. N., & Bouwman, C. H. S. (2013). How does capital affect bank performance during financial crises? Journal of Financial Economics, 109(1), 146–176.

5. Diamond, D. W., & Rajan, R. G. (2000). A theory of bank capital. Journal of Finance, 55(6), 2431–2465.

6. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Basel III: Finalising post-crisis reforms. Bank for International Settlements.

7. Lavrushin, O. I. (2021). Bankovskoe delo. Moskva: KNORUS.

8. Egamova M.E. Tijorat banklari kapitallashuv darajasini oshirishda daromadning roli: iqtisodiyot bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)... Dis.avtoreferati.-T.: TMI, 2019.- 28 b.

9. Tursunov I. B. Tijorat banki kapitallashuviga korporativ boshqaruv ta'sirini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2021. 56 b.



10. Kurbanov R. B., Khudoyberganova Z. Z. Matters of the increasement of private banks' capitalization level // Экономика и бизнес: теория и практика – 2018. – №. 6. – S. 103-105.
11. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
12. Qurbonov, R. (2023). BANK KAPITALLASHUV DARAJASINI OSHIRI SHDA DIVIDEND SIYOSATINING ROLI. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(7), 316-321. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss7-pp316-321>